TERMITLARNING O‘ZBEKISTON FAUNASI UCHUN YANGI AVLOD VA TURI ANIQLANDI







Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti huzuridagi Respublika termitlarga qarshi kurashish ilmiy-ishlab chiqarish markazi olimlari tomonidan ilk bor O‘zbekiston faunasi uchun Blattodea turkumi, Termitidae oilasi, Amitermes avlodiga mansub Amitermes rhizophagus yangi termit turi aniqlandi.

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, Termitidae oilasi vakillari faqat O‘rta Osiyoda - Turkmanistonda tarqalgan.

Mazkur tur respublikamizning janubida Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Vori qishlog‘ida aholi turar joylari va ularga tutash hududlarning yog‘och konstrutsiyalarini termitlar bilan zararlanish holatini aniqlash yuzasidan monitoring tadqiqot ishlari jarayonida aniqlandi.

Amitermes rhizophagus termit turining turli tabaqa: askar, nimfa, ishchi vakillarini morfologik belgilari va molekulyar genetik tahlil ma’lumotlariga ko‘ra identifikatsiya qilish ularning Amitermes rhizophagus Belyaeva, 1974 termit turiga mansubligini tasdiqladi.

Amitermes rhizophagus termit turi askar tabaqasining tasnifiy belgilari: mandibulalari cho‘ziq, o‘tkir uchli o‘roqsimon, cho‘qqisidan marginal tishiga qadar qizg‘ish-jigarrang, keyin asosga tomon qo‘ng‘ir-sarg‘ish; har bir mandibulaning o‘rtasida asosga bir oz orqaga yo‘naltirilgan bitta to‘g‘ridan-to‘g‘ri kesilgan marginal tish joylashgan; - pronotum egarsimon, bosh asosidan sal kengroq va ensani sal yopadi; uning oldingi chekkasi tekis, orqa chekkasi sezilar-sezilmas qirqilgan.

Termitlar jamoasi kesilgan chinor o‘simligining ildiz oldi qismida yuqori namlikka ega bo‘lgan chirigan yog‘och po‘stloq ostida qayd etildi (38°42′29.0″N, 65°11′11.1"Ye, 200-400 m dengiz sathidan). Termitlar jamoasi 1500 tani tashkil etib, 50 nafar nimfa, 35 nafar askar, 1415 nafar ishchi termit tabaqalaridan iborat ekanligi aniqlandi. Yig‘ilgan namunalar orasida qanotli tabaqalari uchratilmadi. Amitermes rhizophagus termit turi tarqalgan joyda termitlarning uya va oziqa kameralari, shuningdek loy -suvoqlar qayd etilmadi.

O‘zbekiston faunasida ilk bor qayd etilgan mazkur Amitermes rhizophagus Belyaeva, 1974 turi tahlillarga ko‘ra, Shimoliy Turkmanistondan Janubiy O‘zbekistonga tabiiy ravishda kirib kelganligidan dalolat beradi.